

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARINI O'QITISHDA METODIK TAVSIYALAR

*Ne'matova Mavluda Yaxyo qizi,
JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar, f.f.f.d. (PhD) Sindorov Lutfulla Qurolovich

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimiz uchun ulkan taraqqiyot, rivojlanish, bitmas-tuganmas boy bisotini namoyish etish omili bo'ldi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tilining leksik qatlamida misli ko'rilmagan o'zgarishlar bo'ldi: "eskirgan so'z" tamg'asi bo'lган ko'plab leksikonlar o'z lisoniy maqomiga ega bo'ldi, xalq tili bisotida qolib kelayotgan minglab so'zlar yasaldi, fan-texnika, tibbiyat, iqtisodiyot, huquq, sport va boshqa sohalarga oid ko'plab yangi so'zlar tilimizga kirib keldi; ish yuritish o'zbek tiliga ko'chdi, atamashunoslik qo'mitasi tashkil etilib, turli sohalarga doir fanniy lug'atlar tayyorlandi...

Tilimiz taraqqiyoti bilan bog'liq ushbu o'zgarishlar, islohotlar imlo lug'atida o'z ifodasini topgan. Chunonchi, xalq so'zlashuv tilida, kundalik turmushda keng qo'llanilib, ammo o'zbek adabiy tilida o'z o'rnini topa olmay yurgan ko'plab so'zlar ham lug'atga kiritildi. *Masalan, do'qqi (qo'pol), qo'qimoq(ivirsimoq), pang'lamoq (mog'or bosmoq)*¹.

O'zini anglagan har bir xalq, avvalo, o'z tarixiga, ona tili va adabiyotiga e'tibor bilan qaraydi. Ayniqsa, ona tili va uning yozushi masalalari doimiy diqqatda bo'ladi. Shu ma'noda o'zbek xalqi ham o'z milliy yozuvini yaratish hamda uni amalda qo'llash borasida g'amxo'rlik qilib kelmoqda. Aslida, hozirgi adabiy til imlo qoidalarimizga qadar juda ko'p bosqichlar bosib o'tilgan. XX asrning boshlaridan boshlab, ma'rifatparvar bobolarimizning sa'y-harakatlari bilan o'zbek tili tarixida ilk marta imlo qoidalari yaratilib, takomillashib borgan.

¹"O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati" Toshkent, 1999.

Hozir O‘zbekistonda kirillcha va lotincha o‘zbek yozuvlaridan foydalanimoqda. Demak, shu ikki yozuvning imlo qoidalaridan xabardor bo‘lish zamon talabidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin.
2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi barcha turdagи yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi , Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi , Xalq ta’limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining imlo lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko‘rsinlar.
4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va fan hamda ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin. (Toshkent shahar, 1995-yil 24-avgust 339-sonli qaror) Vazirlar Mahkamasi Raisi I.Karimov
Shu yilning o‘zida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi yetti bo‘limni o‘z ichiga oladi: :
 1. Harflar imlosi:
 - a)Unlilar imlosi (1-7- bandlar)
 - b)Undoshlar imlosi (8-32- bandlar)
 2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33-37- bandlar)
 3. Qo‘shib yozish (38-50-bandlar)
 4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar)

5. Ajratib yozish (57- 65-bandlar)
 6. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar)
 7. Ko‘chirish qoidalari (75-82-bandlar)²

“Nilufar guli” metodi

“Nilufar guli” chizmasi - muammoni yechish vositasi. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta katta to‘rt burchaklar tashkil etadi.

Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari.

1. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohidagi kichik guruhlarda chizma tuzadilar: to‘rt burchak markazida (A katak) avval asosiy muammoni (g‘oya, vazifa) yozadilar. Uning yechish g‘oyalarini esa markaziy to‘rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to‘rt burchak (B, C, D, F, G, Y, Z, H katak)larga yozadilar. Markaziy to‘rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to‘rt burchaklarga yozilgan g‘oyalarni, atrofda joylashgan sakkizta to‘rt burchaklarning markaziga yozadilar, ya’ni gulning barglariga olib chiqadilar. Shunday qilib, uning har biri o‘z navbatida yana bir muammodek ko‘riladi

2. Ish natijalarining taqdimoti.

“Nilufar guli” chizmasi

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	

² H.Jamolxonov „Hozirgi o’zbek adabiy tili “ Toshkent, 2005.

			G	H	Y			
	G			H			Y	

“Nilufar gul” chizmasini tuzish qoidalari:

- ✓ Amaliy nuqtai nazardan barcha g‘oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.
- ✓ Sizga katta qog‘oz varag‘i zarur bo‘ladi. Doimo o‘zingiz mushohadalarining natijasini bir varaq qog‘ozda ko‘rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.

Namuna

Orombaxsh	Suvtalab	Taklifnama
Qabulxona	1	Bedapoya
Kamquvvat	Bug‘doyrang	Hamsuhbat

Kiryuvdi	Kelintushdi	Qoryog‘di
Urto‘qmoq	3	Ochילדasturxon
Betochar	Kampiro‘ldi	Sochsiypatar

Tezyurar	Otboqar	Cho‘lquvar
Ishyoqmas	2	Buzoqboqar
Yebto‘ymas	Ertapishar	Qushqo‘nmas

Kirsovun	Qiymataxta	Tokqaychi
Oshrayhon	4	Molqo‘ra
Belbog‘	Nosqovoq	Ko‘zoynak

Olaqarg‘a	Mingoyoq	Achchiqtosh
Qizilishton	5	Ko‘ksulton
Sakkizoyoq	Otquloq	Qirqquloq

1	2	3
4	Qo‘shib yozish	5
6	7	8

Kinoteatr	Fotoapparat	Suvosti
Teleko‘rsatuv	6	Elektrotxnika
Yarimavtomat	Bayramoldi	Teleradio

Mingboshi	So‘zboshi	Olmaqoqi
Yuzboshi	7	Tumanboshi
Ellikboshi	O‘nboshi	Ko‘zyoshi

Tog‘olcha	Cho‘lyalpiz	Suvilon
Qashqargul	8	Yeryong‘oq
Yertut	Tog‘chumchuq	Tog‘rayhon

“Ha, yo‘q”

metodi

O‘qituvchi biron nima (raqam, predmet, tarixiy yoki adabiy qahramon, atama va h.k)ni o‘ylab qo‘yadi. O‘quvchilar esa unga savol berib, u nimani o‘ylab qo‘yanligini topishga harakat qiladilar. O‘qituvchi ularning savollariga faqat “ha” va “yo‘q” so‘zlari bilan javob beradi. Metod yakunlanganidan so‘ng, albatta, qanday savollar kuchli, qandaylari kuchsiz va nima uchunligi yuzasidan qisqacha muhokama o‘tkaziladi. Ushbu metoddan yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Metodning maqsadi bolalarni tartibsiz savol berishga urintirmasdan, ularni mustaqil izlanishga o‘rgatishdir. Namuna sifatida quyidagicha savollarni keltirish mumkin:

1. “Tolpopuk” so‘zi qo‘shib yoziladimi?
2. “Yolg‘izqo‘llik” so‘zi ajratib yoziladimi?
3. “Ko‘zimning nuri” so‘zi qo‘shib yoziladimi?
4. “Darsxona” so‘zi ajratib yoziladimi?
5. “Chang-to‘zon” so‘zi ajratib yoziladimi?
6. “Sayohat” so‘zi “Qo‘shib yozish” bo‘limida o‘rganiladimi?
7. “Maqtov” so‘zi “Harlar imlosi “bo‘limida o‘rganiladimi?

8. “Sharmandalikka” so‘zi “Asos va qo‘sishimchalar” bo‘limida o‘rganiladimi?

9. “Samarqand” so‘zining oxirida jarangsiz undoshdan foydalaniladimi?

10. “Hasrat-nadomat” so‘zida tire tinish belgisidan foydalaniladimi?

“To‘g‘risini qo‘llang” metodi

Ushbu metod o‘quvchilarning “Orfografiya “bo‘limini qay darajada o‘zlashtirganini ko‘rsatib beradi. Bola berilgan gaplardagi xato va kamchiliklarni tez ilg‘ab olishi uchun bu metod yordamga keladi. Bolada tanlash imkoniyati mavjud bo‘lib, ikkilanmasdan to‘g‘ri bo‘lgan javobni aytishi zarur bo‘ladi.

1. Shunday deb u *yonboshiga* ag‘darildi. / Shunday deb u *yon boshiga* ag‘darildi.

2. Jamila ikki haftadan buyon *bo‘yo‘sardan* tanovul qilmoqda. / Jamila ikki haftadan buyon *bo‘y o‘sardan* tanovul qilmoqda.

3. *Don Kixot* mo‘jizaviy ajoyibotlar haqidagi hikoyani tezroq eshitishga oshiqqanidan otxonaga bormoqchi bo‘ldi. / *Don Kixot* mo‘jizaviy ajoyibotlar haqidagi hikoyani eshitishga oshiqqanidan ot xonaga bormoqchi bo‘ldi.

4. Puldor, mansabdorlarning farzandlari *chalasavod* bo‘lsalar-da, oltin, kumush medal oladilar. / Puldor, mansabdorlarning farzandlari *chala savod* bo‘lsalar-da, oltin, kumush medal oladilar .

5. So‘zlarining sevgi haqida jaranglasa ham, jaranggiga *ko‘zyoshlarining* hamrohlik qilsa ham gapir! / So‘zlarining sevgi haqida jaranglasa ham, jaranggiga *ko‘z yoshlarining* hamrohlik qilsa ham gapir!

6. Qayerda *ko‘ngilxushlik*, yarim-yalang‘ochlik, dinsizlik targ‘ib qilinsa, harom-harish erkin bo‘lsa, o‘sha joyda o‘zini o‘ldiradiganlar ko‘proq topiladi. / Qayerda *ko‘nglixushlik*, yarim-yalang‘ochlik, dinsizlik targ‘ib qilinsa, harom-harish erkin bo‘lsa, o‘sha joyda o‘zini o‘ldiradiganlar ko‘proq topiladi.

“O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini o‘qitishda pedtexnologiyalarni qo‘llash” mavzusidagi maqolamda “Nilufar guli”, “Ha, yo‘q”, “To‘g‘risini qo‘llang” singari metodlardan foydalandim. O‘z o‘rnida qo‘llangan ushbu metodlar mavzuni ixcham va sodda shaklda ochib berishga qaratilgan. Dars jarayonida qo‘llaniladigan har bir metod o‘quvchilarni zukkolikka, topqirlikka, mustaqil o‘qib o‘rganishga undaydi. Shuningdek, darsning qiziqarli o‘tishini taminlaydi. Ma'lumotlarni yaxshi eslab qolishga va mavzuni yoritishga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati” Toshkent, 1999.
2. H. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent, 2005.